

TERMINOLOGIYA VA LEKSIKOGRAFIYANING TARAQQIY TOPISHI

Namangan davlat universiteti talabasi

Sog'inboyeva Shahzoda

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida o'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi sohalarida amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar tahlil etiladi. Unda fan, texnika, ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotdagi yangilanishlar natijasida yangi terminlarning paydo bo'lishi, ularni ilmiy tahlil qilish va tartibga solish zarurati yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamashunoslik qo'mitasining faoliyati, terminologik lug'atlar yaratishdagi muhim o'rni va ayrim kamchiliklar ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, terminologiya, leksikografiya, Atamashunoslik qo'mitasi, etimologik lug'at, ish yuritish, mustaqillik, davlat tili, til siyosati.

DEVELOPMENT OF TERMINOLOGY AND LEXICOGRAPHY

Student of Namangan State University

Soginboyeva Shahzoda

Annotation: The article analyzes the extensive work carried out in the fields of Uzbek terminology and lexicography in the Republic of Uzbekistan during the years of independence. It highlights the emergence of new terms as a result of innovations in science, technology, production and social life, the need for their scientific analysis and regulation. It also highlights the activities of the Terminology Committee under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, its important role in creating terminological dictionaries, and some shortcomings.

Keywords: Uzbek language, terminology, lexicography, Terminology Committee, etymological dictionary, work, independence, state language, language policy.

Fan, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy hayotdagi jiddiy o'zgarishlar va bu o'zgarishlarni tilda ifoda etish zarurati tufayli yangidan yangi terminlar vujudga kelmoqda. Har bir sohada uchraydigan bunday terminlarni ilmiy tahlil qilib borish, ularni tartibga solish terminologiyaning asosiy vazifasidir. Bu vazifani amalga oshirishning asosiy yo'llaridan biri mukammal terminologik lug'atlar tuzishdir. Terminologik tizimlarning, terminologik lug'atlarning mukammal bo'lishi esa ko'p



jihatdan turli soha mutaxassislarining tilshunoslar bilan ilmiy hamkorligiga bog'liqdir.

¹Qisqa muddat faoliyat ko'rsatgan O'zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika Atamashunoslik qo'mitasining (1989-2004) sa'y-harakatlari bilan respublikada terminologik tadqiqotlar olib borish va terminologik lug'atlar tuzish bir qadar jonlanib, bevosita mazkur Atamashunoslik qo'mitasi tomonidan nashr etilgan 30 dan ortiq yoki Atamashunoslik qo'mitasining turli bo'limlarida muhokama qilinib tasdiqlangan va nashr etilgan har xil hajmli terminologik lug'atlarning yaratilishida ba'zan yuqoridagidek ilmiy hamkorlikka to'liq rioya qilinmaganligi bois ularda ozmi-ko'pmi nomuvofiq (dublet, polisemantik, noaniq) terminlar uchraydi. Bunday holatni falsafa, huquqshunoslik, pedagogika, biologiya va boshqa bir qancha fan sohalari bo'yicha tuzilgan terminologik lug'atlarda kuzatish mumkin. Prezident I. Karimovning quyidagi so'zlarini ayni mazkur holatni bartaraf etishga qaratilgan fikr deb qabul qilish mumkin: «... Ayniqsa fundamental fanlar, zamonaviy kommunikasiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz».²

Ayni shu nuqtayi nazardan keyingi yillarda ham yangi-yangi fan sohalari bo'yicha terminologik tadqiqotlar olib borish va terminologik lug'atlar tuzish ishlari davom etmoqda. Masalan, falsafa, iqtisodiyot, fizika, texnika, tibbiyot, biologiya, ekologiya, geologiya, tilshunoslik, ish yuritish sohalari bo'yicha bir emas, ikki, uch, to'rttalab yangi terminologik lug'atlarning tuzilishi va nashr etilishi Prezidentimizning mazkur ko'rsatmalarining amaldagi ijrosi deb qabul qilish mumkin. Shuningdek, M.M.Muxiddinov ishtiroki va tahriri ostida yaratilgan televideniye, mobil aloqa tizimlari, axborot texnologiyasi operatsion tizimlariga, axborot xavfsizligiga oid ikki va uch tilli terminologik lug'atlar mustaqillik davri o'zbek leksikografiyasining taraqqiyot mahsulidir. Xullas, zamonaviy o'zbek leksikografiyasi tarixida shu kungacha ilm-fan va texnikaning 50 dan ortiq turli sohalari va tarmoqlari bo'yicha 300 dan ortiq xilma-xil terminologik lug'at yaratilgan bo'lsa, ularning yarmidan ko'prog'i respublikamiz mustaqilligi yillarida nashr etilgan. Mustaqillik davrida o'zbek tilshunosligi, o'zbek leksikografiyasi erishgan katta yutuqlardan yana biri o'zbek tili

¹ Курбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (Содда гап синтаксиси учун материаллар). - Тошкент, 2002

² Каримов И. Юксак маънавият - енгилмас куч. -- Тошкент, 2007. - Б. 87.



etimologik lugʻatining yaratilishi boʻldi. Garchi Y.D.Polivanov 1926-yilda nashr qilingan qisqacha oʻzbekcha-ruscha lugʻatida «Oʻzbek tilining etimologik lugʻati»ni nashrga tayyorlab qoʻyganini yozgan boʻlsa-da, lekin bu lugʻat hayot yuzini koʻrmay qolgan edi. Ayub Gʻulomovning «Oʻzbek tilining soʻz yasash muammolari» mavzusidagi doktorlik dissertasiyasida (1955-yil) oʻzbek tili etimologiyasi boʻyicha anchagina materiallar berilgan, lekin u ham nashr qilinmagan edi. Oʻzbek tilining ilk etimologik lugʻati Sh.Rahmatullaev tomonidan mustaqillik davrida yaratildi va nashr etildi. Uch qismdan iborat (1-kitob: oʻzbekcha soʻzlar, 2000; 2-kitob: arabcha soʻzlar, 2003; 3-kitob: forsha soʻzlar, 2009). Ushbu lugʻatning nashr etilishi, undagi ayrim nuqson va yetishmovchiliklarga qaramay, oʻzbek leksikografiyasi tarixida katta voqea boʻldi.³

Avvalo, «Davlat tili toʻgʻrisida»gi qonunning qabul qilinishi va istiqloldan soʻng uning yangi tahriri korxona va muassasalarda davlat tilida ish yuritishni Qonun bilan mustahkamlab qoʻydi. «Oʻzbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi qonunning 19-moddasida «Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamgʻalari, ish qogʻozlarining matnlari davlat tilida boʻladi», - deb belgilab qoʻyilgan. Lekin uzoq yillar hujjatchilik ishlari asosan rus tilida yuritilgani natijasida koʻpchilik hujjat yuritishni unutgan yoki rus tilidagi hujjatlardan nusxa koʻchirishga oʻtgan, ⁴buning oqibatida oʻzbek tilining rasmiy uslubi tamomila oʻsishdan toʻxtagan edi. Shuning uchun oʻzbek tilida ish yuritishning asoslari ishlab chiqilishi, qonun-qoidalarini oʻzida namoyon etgan namunalari toʻplam holida nashr etish tarixiy zaruratga aylandi. Ana shu zaruratdan kelib chiqib, mustaqillik bergan imkoniyat tufayligina oʻzbek tilshunosligi tarixida ilk marta M.Aminov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov va N.Mahmudovlar tomonidan «Ish yuritish» (Toshkent, 2000; keyingi nashrlari -2003, 2009, 2010) kitobi dunyoga keldi. Bu asar har bir korxona, muassasaning hujjatlar yuritish boʻyicha dasturulamaliga aylandi. Rasmiy ish yuritish uslubining meʼyorlashishiga asos boʻlib xizmat qildi.⁵

Oʻzbekistonning mustaqillikka erishuvi natijasida oʻzbek terminologiyasi va leksikografiyasi yangi bosqichga koʻtarildi. Fan va texnika sohalaridagi rivojlanish yangi terminlarning yaratilishini taqozo etdi va bu jarayon ilmiy asosda yoʻlga qoʻyildi. Atamashunoslik qoʻmitasining tashkil etilishi terminologik lugʻatlar yaratish jarayonini

³ Курбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (Содда гап синтаксиси учун материаллар). - Тошкент, 2002

⁴ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981.

⁵ Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясашишнинг назарий масалалари. -Тошкент, 2010
ва бошқалар



jadallashtirdi. Mustaqillik yillarida yuzlab ikki va ko'p tili terminologik lug'atlar, jumladan, o'zbek tili etimologik lug'ati yaratilib, bu sohada katta yutuqlarga erishildi. Davlat tili to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi va ish yuritishning o'zbek tilida yo'lga qo'yilishi milliy tilning ijtimoiy nufuzini oshirdi. Natijada o'zbek tili nafaqat muloqot vositasi, balki fan, texnika va boshqaruv sohalarida ham yetakchi kommunikativ vosita sifatida shakllandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Тошкент, 2008;
2. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. - Жиззах, 2006.
3. Каримов И. Юксак маънавият - енгилмас куч. -- Тошкент, 2007. - Б. 87.
4. Курбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (Содда гап синтаксиси учун материаллар). - Тошкент, 2002
5. Усмонова Ш. Психоллингвистика (ўқув-услубий мажмуа). - Тошкент, 2011.
6. Ахманова О. С. Глоссематика Л. Ельмслева как проявление упадка современного буржуазного языкознания. // Вопросы языкознания, 1953. №5.
7. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. - Тошкент, 2007;.
8. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. -Тошкент, 2010 ва бошқалар
9. Гак В.Г. Словарь // Лингвистический энциклопедический словарь. - Москва, 1990.-С. 462.
10. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981.